

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA IJTIMOY SHERIKLIK MUNOSABATLARINING TAKOMILLASHUVI

*Nishanbayeva Enajon Zaripbayevna, O‘zMU, “Siyosatshunoslik”
kafedrası dotsenti*

УЛУЧШЕНИЕ ОТНОШЕНИЙ СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЕРСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

*Нишанбаева Энажон Зарипбаевна, УзМУ, доцент кафедры
«Политология»*

IMPROVEMENT OF SOCIAL PARTNERSHIP RELATIONS IN THE NEW UZBEKISTAN

*Nishanbaeva Enajon Zaripbaevna, UzMU, Associate Professor of
the Department of Political Science*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklikni takomillashtirish masalalari jahon tajribasi va milliy miqyosda tahlil qilingan. Shu bilan birga, jamoatchilik nazoratini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari, ijtimoiy mas‘uliyat oshib borishi dinamikasi kabi masalalar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy sheriklik, jamoatchilik nazorati, ijtimoiy mas‘uliyat, ijtimoiy-mehnat sohasi, nodavlat sektor, siyosiy faollik, fuqarolik jamiyati, demokratiya.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы совершенствования социального партнерства в Узбекистане на основе мирового опыта и национального уровня. При этом анализируются такие вопросы, как перспективные направления развития общественного контроля, динамика повышения социальной ответственности.

Ключевые слова: социальное партнерство, общественный контроль, социальная ответственность, сфера социальной работы, негосударственный сектор, политическая деятельность, гражданское общество, демократия.

Annotation: This article analyzes the issues of improving social partnership in Uzbekistan based on international experience and the national level. At the same time, such issues as promising areas for the development of public control, the dynamics of increasing social responsibility are analyzed.

Key words: social partnership, public control, social responsibility, social work, non-governmental sector, political activity, civil society, democracy.



<https://orcid.org/0009-0008-9037-6410>

e-mail:

nishanbayeva_e71@mail.ru

KIRISH. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda katta o‘zgarishlar bo‘ldi, islohotlarni amalga oshirish borasida tajriba orttirildi, aholining faolligi oshdi, islohotlardagi ishtirokining ko‘lami kengaydi.

Qolaversa, jahonda jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Mintaqamizda ham yangi xavf-xatar va tahdidlar kuchayib bordi.

Mana shunday murakkab va qaltis vaziyatda mamlakatda barqarorlikni saqlash, tinchlik-osoysishtalikni ta‘minlash kun tartibining eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

Bu voqea-hodisalar o‘z navbatida strategik yo‘lni izchillik bilan davom ettirish, xavf-xatarining oldini olishga qaratilgan yangi reja va dasturlarni ishlab chiqishning ahamiyatini keskin oshirdi. Shunday sharoitda jamiyatdagi barqarorlikni ta‘minlashning muhim omillaridan biri sifatida ijtimoiy sheriklikning ahamiyati oshib boradi.

Yangi O‘zbekistonda keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan aynan davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi yaqin hamkorlikka bog‘liq jarayondir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Bizning yana bir muhim vazifamiz – fuqarolar, davlat va jamiyat o‘rtasida o‘zaro mas‘uliyat, huquq va burch bog‘liq ekaniga oid prinsipni izchil amalga oshirishdan iborat. Bu prinsip mamlakatimiz oldida turgan muhim vazifalarni hal qilishda davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasida samarali hamkorlikni ta‘minlaydigan konstitutsiyaviy asosdir. Biz barchamiz – fuqarolar ham, jamiyat ham, davlat ham Vatanimiz ravnaqi uchun, mamlakatimizda tinchlik-barqarorlikni mustahkamlash uchun, tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosimizni saqlash, boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish uchun birdek mas‘ulmiz”[1] deb ta‘kidlagan.

Bunday hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda so‘nggi yillarda mamlakatimizda qanday ishlar qilindi va bu ishlarning amalga oshirilishi uchun qanday omillar mavjud edi?

Xususan, birinchidan, mamlakatda mavjud barqarorlik;

ikkinchidan, sohaning huquqiy asoslari yurtimizda tobora rivojlanib borayotgani;

uchinchidan, ijtimoiy sheriklikning tashkiliy-institutsional asoslari keyingi yillarda yanada takomillashayotgani;

to‘rtinchidan, bugun jamiyatimiz taraqqiyotidagi o‘ziga xos jarayonlar va ular bilan bog‘liq ravishda ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishga obyektiv ehtiyojning mavjudligi ham uning rivojlanishiga juda katta asos bo‘lmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Bu yo‘nalishdagi faoliyatning huquqiy negizlarini yanada mustahkamlash maqsadida 2014-yilda “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi, shuningdek gumanitar muammolarni hal etish, aholi turli qatlamlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishda nodavlat tuzimlarining davlat idoralari bilan o‘zaro munosabatlarining aniq chegaralarini belgilash va huquqiy mexanizmlarini yaratadi.

Qonun amal qila boshlagandan o‘tgan qisqa davrda to‘plangan amaliy tajriba bu sohada tashkiliy-huquqiy mexanizmlar yanada takomillashtirilishi lozimligini taqozo etdi. Shu bois sheriklik shakllarini yanada kengaytirishga yo‘naltirilgan “Davlat va xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni 2018-yilda qabul qilindi.

O‘zbekistonga kelsak, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining rivoj topib, kengayib borayotganining misoli sifatida u quyosh va shamol stansiyalarini hisobga olganda energetika sohasidagi yirik loyihalarni qamrab olganligini ko‘rsatish mumkin. Bu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning samarasi natijasida 2022-2026 yillarda 14 mlrd AQSH dollariga teng miqdorda davlat-xususiy sheriklik loyihalari moliyalashtirilishi rejalashtirilgan.

MUHOKAMA. Ijtimoiy sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash maqsadida davlat bu jarayonning tashabbuskori bo‘lib chiqmoqda va quyidagi shakllarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni rag‘batlantirmoqda, jumladan:

- davlat boshqaruvi organlarida jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha ixtisoslashtirilgan matbuot xizmatlari[2];

- 2018-yilda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining muhokamasi uchun tashkil etilgan regulation.gov.uz veb portali[3];

- fuqarolarning qonun hujjatlari loyihalari yuzasidan jamoatchilik murojaatlari. “Mening fikrim”[4] portali yordamida fuqarolarga jamiyat va davlat hayotiga oid dolzarb masalalar yuzasidan elektron shaklda jamoaviy murojaat qilish uchun

imkoniyat yuzaga keldi. Portal ishga tushirilishi natijasida jamoatchilik tashabbuslari uchun yagona maydon shakllandi, kelgusida u fuqarolarning qonunchilik tashabbuslarini ifoda etib, fuqarolik jamiyati rivojlanishining kuchli impulsi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Prezidenti qarori (PQ-4473-sonli)[5] asosida barcha markaziy davlat telekanallarida doimiy asosda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqiy sohalarining eng dolzarb masalalariga bag'ishlangan teleeshitirishlar, jamoatchilik munozaralari o'tkazilishi belgilanganligi natijasida:

- davlat hokimiyati organlarining faoliyati to'g'risida muntazam ravishda jamoatchilikka axborot taqdim etish;

- fuqarolarning davlat boshqaruvida yanada kengroq ishtiroki,

- boshqaruv qarorlarining jamiyat uchun shaffofligini ta'minlash darajasi yanada oshdi.

Butun dunyo bo'ylab koronavirus infeksiyasi tarqalgan sharoitda fuqarolarning boshqaruv jarayonida yanada ko'proq faollashuvi kuzatildi. O'zbekistonda ham shunday murakkab sharoitda aholining fuqaroviy onggi oshganligi, koronavirus pandemiyasi muammosi tufayli jamiyatni yanada jipslashganligini namoyon qilgan ko'plab misollarni keltirish mumkin, bu esa jamiyat barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy sheriklikning imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun sharoit yaratdi.

Koronavirus pandemiyasi sharoitida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini davom ettirish va rivojlantirish uchun yangicha yondashuv, usullar, innovatsion mexanizmlar talab qilindi. Shu nuqtayi nazardan an'anaviy ijtimoiy sheriklikdan raqamli ijtimoiy sheriklikka o'tish zaruriyati paydo bo'ldi.

Endilikda raqamli ijtimoiy sheriklik modeli ijtimoiy taraqqiyotning muhim jihati sifatida e'tirof etilayapti.

Raqamli ijtimoiy sheriklikda hamkorlik munosabatlari onlayn platformada onlayn tarzda amalga oshiriladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, global pandemiya davrida raqamli ijtimoiy sheriklikni sayohat, turizm, onlayn marketlar, ko'ngilochar o'yinlar, ko'rsatuvlar bozori, uchrashuvlar, o'quv kurslari, konferensiya, vebinariya va ko'rgazmalar faoliyatida juda katta o'zgarishlar kuzatildi. Mazkur soha vakillari qisqa vaqt mobaynida o'z faoliyatini offlayn formatdan onlayn formatga o'tkazishdi. Ular

masofadan turib iste'molchilarga o'z xizmatlarini hech qanday muammosiz yetkazib bera oldi. Bu davrda iste'molchilarning xulq-atvoridagi o'zgarishlar va yangi davr talablari hisobga olindi, aholiga xizmat ko'rsatish sohasida raqamli ijtimoiy sheriklikning rivojlanishi kelgusida ham iste'molchilarning qarorlar qabul qilish, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish va xarid xulq-atvoridagi o'zgarishlarga olib keladi.

Mavjud va so'nggi yillarda namoyon bo'layotgan ijtimoiy sheriklik munosabatlari shakllarining tahlili davlat bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi muloqot muntazam rivojlanib borayotganidan, boshqaruv tizimida jamoatchilikning faolligi, biznesning islohotlar uchun javobgarlik hissi, jamiyat hamda har bir fuqaroning ijtimoiy va shaxsiy xavfsizlik, demakki mamlakat barqarorligi uchun mas'uliyati oshib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Ijtimoiy sheriklikning yana bir zamonaviy modeli sifatida aholining keng qatlamlarini ijtimoiy ahamiyati dolzarb bo'lgan masalalarga jalb qilish tajribasi bo'lgan kraudsorsingni keltirish mumkin.

Insonlar ko'proq o'ylashga, faol harakat qilishga, atrofidagi holat va jarayonlarni yanada yaxshiroq qilishga doimo tayyor ekanligini nazarda tutgan holda O'zbekistonning hozirgi rivojlanish bosqichida davlat organlari va NNT larning o'zaro samarali faoliyatida kraudsorsingni qo'llash mumkin. Ularga shunday jamoaviy muhokamalarda ishtirok etish imkoniyatini yaratish zarur. Axborot texnologiyalarni keng qo'llash yordamida mamlakatning ijtimoiy-siyosiy masalalarini optimal yechimlarini topish jarayoniga minglab odamlarni jalb qilish mumkin.

O'zbekistonning ijtimoiy hayotiga mazkur texnologiya kirib kelmoqda. Shunga qaramay ayrim misollarni keltirish mumkin. 2018-yilda Toshkent shahar hokimligi tomonidan birinchi bor keng miqiyosda "Toshkent seni sevadi" shiori bilan shahar infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha onlayn-platforma ishga tushirildi[6].

NATIJA LAR. Bizning fikrimizcha, ushbu sohadagi ishlarning holati amalga oshirilayotgan keng ko'lamlis lohotlarda, fuqarolarning siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishda, ularning ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarini qondirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining faol ishtirok etishiga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli

muammo va kamchiliklar mavjudligidan dalolat bermoqda. Xususan:

birinchidan, davlatning fuqarolik jamiyati bilan samarali va konstruktiv muloqot mexanizmlari yo'lga qo'yilmagan, nodavlat notijorat tashkilotlarining ehtiyojlari tizimli tahlil qilinmayapti, davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning muhim masalalari bo'yicha o'zaro fikr almashish uchun samarali maydonlar yaratilmagan;

ikkinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb qilish darajasining pastligi barcha ijtimoiy guruhlarning turli nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ifodalanadigan manfaatlarini chuqur o'rganish hamda inobatga olishga imkon bermayapti;

uchinchidan, yetarli qonunchilik bazasi yaratilganligiga qaramay, ijtimoiy sheriklik davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida fuqarolarning keng ko'lamlı ijtimoiy muammolarini hal qilishga, ularning, ayniqsa yoshlarning tashabbuslari va zamonaviy g'oyalari haqiqatda ilgari surishga qaratilgan hamkorlikning samarali mexanizmiga aylana olmadi;

to'rtinchidan, mamlakatni sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jihatdan yanada rivojlantirish bo'yicha innovatsion g'oyalarni taklif qiluvchi faol, o'zining tashabbuslariga tayanib faoliyat ko'rsatadigan nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish choralari lozim darajada amalga oshirilmayapti;

beshinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini, ularning faoliyati tartibini belgilovchi qonunchilik normalarida ortiqcha byurokratik talablar va g'ovlar nazarda tutilgan bo'lib, bu normalar eskirgan va zamon talablariga javob bermaydi;

oltinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qo'llanilayotgan idoralararo hamkorlik usullari samarasizdir, davlat organlari o'rtasida ma'lumotlar va axborot almashishning yagona mexanizmlari mavjud emas;

yettinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlarining moddiy-texnik ta'minoti hanuzgacha qoniqarsiz holatda qolmoqda, fuqarolik

jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlashga davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lar o'rta muddatli va uzoq muddatli keng ko'lamlı hamda umumrespublika miqyosidagi loyihalar va dasturlarni amalga oshirishga imkon bermayapti [7].

XULOSA. Ijtimoiy sheriklikning yuqoridagi modellaridan samarali foydalanish kelgusida O'zbekistonda fuqarolik jamiyati sifat jihatidan yangi bosqichga o'tishiga, xalq bilan muloqotning rivojiga, fuqarolarni boshqaruv jarayonlariga jalb qilishning ko'lami yanada kengayishiga olib keladi. Yangi O'zbekistonda islohotlarning keng avj olishi natijasida ijtimoiy munosabatlarning rivoji oxir-oqibatda davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlikning yangi modellari yuzaga kelishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // <https://www.prezident.uz/uz/lists/view/1328>.
2. O'zbekiston Respublikasi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Int.: <http://lex.uz/docs/3561681>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2018 yildagi PQ-3666-son qarori. Int.:h.
4. Mening fikrim maxsus veb-portali yaratildi. Int.:<http://www.uza.uz/oz/society/mening-fikrim-makhsus-veb-portali-yaratildi-20-04-2018>.
5. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o'zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04-oktyabr 2019-y. qarori. Int.: <https://lex.uz/docs/4538242>.
6. Ташкент любит тебя, или Краудсорсинг в развитии городской инфраструктуры. Int.: <http://xs.uz/ru/post/tashkentlovesu>.
7. Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent, 2018-yil 4-may. PF-5430-son.Int.: <https://lex.uz/docs/3721649>.